

**TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA TA'LIM METODLARIDAN
FOYDALANISHNING INNOVATSION TAMOYILLARI**

*Abdupattayeva Nargiza Avazovna
Andijon shahar 4-son Kasb hunar maktabi diektori*

Annotatsiya: Bu maqolada o'qituvchilar zamonaviy metodlarni darsda foydalansa ta'linda yuqori samaradorlikga erishishi, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarish maqsadida o'qituvchi turli-tuman metodlar bilan darsni boyitishi va shu bilan birga a'nnaviy dars shaklini saqlab qolishi kerakligi, dars jarayonini to'g'ri tashkil qilishi, darsga qiziqtirishi va eng asosiysi har doim o'quvchilarni rag'batlantirib turishi ta'lim oluvchilarning foalligini oshirishi va ularni amaliy mashqlarni mustaqil ravishda bajarishi keltirilgan. Interaktiv metod turlari hamda ularning ta'riflari berilgan.

Kalit so'zlar: inerfoal metod, interaktiv metod, didaktik, aqliy hujum metodi, davra suhbat metodi, og'zaki bayon qilish metodi, fikriy hujum metodi.

Bugungi kunda pedagog xodimlarning maqsadi ta'lim oluvchilarning bilimi, ko'nikmasi va malakalari zamon talablariga javob beradigan darajada bo'lishini ta'minlashdir. Shu sababli, o'qituvchilar o'z ustilarida mustaqil doimiy ravishda ishlashlari, ilmiy ijodiy izlanishlar qilishlari va malakalarini oshirib borishlari darkor. Shu bilan birga, o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasi davr talabiga mos kelishi va davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishi zarur. O'qituvchilar ta'lim jarayonida interfoal va zamonaviy metodlarni qo'llashi tufayli ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishadi. O'qituvchi har bir darsga ta'lim metodlarini tanlashda shu darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlaydi. Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarish maqsadida o'qituvchi turli-tuman metodlar bilan darsni boyitishi va shu bilan birga a'nnaviy dars shaklini saqlab qolishi kerak. Buning uchun dars jarayonini to'g'ri tashkil qilishi va darsga qiziqtirishi va eng asosiysi har doim o'quvchilarni rag'batlantirilib turishi ta'lim oluvchilarning foalligini oshiradi va ularni amaliy mashqlarni mustaqil ravishda bajarishga undaydi.

Zamonaviy tilda bu metodlarni interaktiv metodlar ham deb atashadi va bu metodlar asosida dars o'tilsa, o'quvchilar darsda foal ishtirok etadilar. Metod so'zi "yo'l" ma'nosini anglatadi, ya'ni yunoncha "métodos" so'zidan olingan. Metodlar bu aniq maqsadga qaratilgan ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyatidir. Metodlar guruhlarga bo'linadi va bu guruhlar o'z navbatida kichik guruhlarga bo'linib ketadi. Metodlar 3 guruhga bo'linadi, ya'ni o'quv materiallarini og'zaki bayon qilish usuli, ko'rgazmalilik metodi, amaliy mashg'ulotlar metodlaridir. Quyidagi sxemada metod turlari kichik guruhlarga bo'lingani ko'rsatilgan.

O`quv materiallarini og`zaki bayon qilish usuli: hikoya, maruza, suhbat, darslik va boshqa o`quv adabiyotlari bilan ishslash

Ko`rgazmalilik metodi: ta`siriy, o`quv materiallarini namoyish qilish, ramziy va sxematiktasviriy materiallar, xaritalar, chizmalar, diagrammalar va hakazo.

Amaliy mashg`ulotlar metodi: mashq qildirish metodi, labaratoriya mashg`ulotlari metodi, amaliy mashqlar metodi va hakazo.

Dars berish jarayonida o`qituvchi turli-tuman metodlarni foydalanadi va mavzuga doir metodlarni ishlatadi. Aqliy hujum metodi juda samarali metodlardan hisoblanadi. Bu metod ma'lum bir muammo yuzasidan o`quvchilarining fikrlarini to'plab va shu bo'yicha yechimiga kelinadigan metoddir. Bu metod yozma va og`zaki shakllarga bo'linadi. Og`zaki shaklida o`quvchilar o`qituvchi tomonidan berilgan savollarga og`zaki javob beradi va berilgan javoblar aniq va qisqa bo'lishi kerak. Yozma shaklida esa o`quvchilar javoblarini qo'ozga qisqa va aniq tarzda yozib va doskaga iladilar. Bu metod to'g'ri qo'llanilsa, o`quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatadi va barcha o`quvchilarni qamrab olish imkoniyati bo'ladi. Afzalligi shundaki, bu metodta o`quvchilararning muloqot qilish madaniyati shakllanadi, ya'ni ham yozma ham og`zaki fikr yuritish rivojlanadi.

Yana bir samarali metodlardan biri bu "Davra suhbati" metodidir. Bu metodda o`quvchilar dumaloq stol atrofida o'tirib, bir-birlarini qo'llab-quvvatlab berilgan savolga o'z fikrlarini bildiradilar. Qatnashuvchilarining doira shaklida o'tirishining sababi bir-birlariga yordam berishdir. Davra suhbati metodining ham ikki turi mavjud: yozma va og`zaki. Og`zaki shaklida o`quvchilar o'z fikr-mulohazalarini og`zaki bayon etadilar va bu orqali o`quvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi va ularning mustaqil fikrlashiga yordam beradi. Yozma shaklida esa savol konvertga solinadi va konvertdagi varoqqa javob yoziladi. Bu metodning afzalligi hamma o`quvchilar ishtirok etadi va o'z fikrini erkin fikrlaydi.

Bundan tashqari, yana bir boshqa metodlardan biri “Fikriy hujum” metodidir. Bu metod A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan va ta’lim oluvchilarning erkin fikrlashini ta’minlashdir. Fikriy hujum metodining avvalgi ikkita metoddan farqi shundaki bu metodda 15 nafar o’quvchi qatnashi zarur. Ushbu metoddan samarali va muffaqiyatli foydalanish o’qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko’lamining kengligiga bog’liq bo’ladi va ko’zlangan maqsadga erishadi. Agar o’qituvchi shu metodni ishlatib darsni tashkil qilsa, dars samarali bo’ladi.

Bilamizki, ajdodlarimiz Al Buxoriy, At Termiziy, Ibn Sino, Al Beruniy, Al Farobiy pedagogika rivojiga ulkan hissa qo’shganlar, ta’lim sohasiga bag’ishlangan ko’plab asarlar yozgan va ta’lim metodlari masalasiga jiddiy e’tibor bergenlar. Shundan, Ibn Sino o’qituvchilarga o’quvchilar bilan muomilada bosiq va jiddiy bo’lishni, berilayotgan bilimga o’rganuvchilarning qanday o’zlashtirib olayotganiga e’tibor berishni, turli metodlardan foydalanishni, o’quvchilarning qobiliyatini inobatga olib fanga qiziqtirshni, bilimlarni o’quvchilarning aqliy darajasi va yoshiga mos kelishini alohida yo’l-yo’riqlar bilan ta’kidlaydi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy matematika fanini yuqori cho’qqiga olib chiqdi va buyuk kashfiyoti bo’lmish “0” sonini ixtiro qildi va natijada o’nlik sanoq sistemasi kiritildi. Bundan tashqari, Abu Nasr Forobiy ta’limda fanlarning nazariy asoslari o’rganilsa, tarbiyada odob me’yorlari o’rganiladi va bu ta’lim beruvchilar tomonidan turli-tuman metodlar asosida amalga oshadi deb ta’kidlaydi. Forobiy o’quvchilarni rag’batlantirish, vaqtি kelsa majburlash metodidan foydalanish g’oyasini beradi.

Bundan tashqari, Abu Rayhon Beruniy ta’limda turli xil usullardan o’qituvchilar foydalanishi kerakligini va o’quvchilarni zeriktirmaslik, o’tilgan mavzularni takrorlash, taxlil qilish va taqqoslash va ma’lumotlarni ko’rgazmali bayon etish fikrini ilgari suradi.

Xulosa qilib aytganda, o’qituvchilar ta’lim jarayonida interfoal va zamonaviy metodlarni qo’llashi tufayli ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishadi. O’qituvchilar ta’lim jarayonida interfoal va zamonaviy metodlarni qo’llashi tufayli ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishadi. Aqliy hujum metodi, davra suhbati metodi va fikriy hujum metodlarini ta’lim beruvchi darsda foydalansa dars sifati va samaradorligi oshadi. Shuningdek, buyuk olimlarimiz Buxoriy, Termiziy, Ibn Sino, Al Beruniy, Al Farobiylarning bergen tavsiyalari, g’oyalari va metodlarini darsda ta’lim beruvchi foydalansa dars undanda sifatli bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

- 1.B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. Toshkent – 2017, “Sano-standart” nashriyoti.
2. Innovasion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H.,

- Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.
3. Ismoilova D.M. Zamonaviy didaktik yondashuvl ar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari ta’lim mazmunini prognostika qilish. Xalq ta’limi” jurnali T.:2020 yil
4. Musurmonov R. Ta’lim faoliyati sharoitida o‘qituvchi va o’quvchilar o’rtasidagi nizolarning oldini olish – ta’lim samaralidorligi omili. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
6. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
7. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo‘ll.
- U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.